Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalari yordamida ishlab chiqarilgan energiya boshqa manbalar bilan taqqoslaganda, havoning ifloslanish darajasini kamaytiradi. Bu esa, aholi salomatligi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining qariyb 99 foizi xavfsizlik chegaralaridan oshib ketadigan va inson salomatligiga tahdid soladigan sifatsiz havodan nafas oladi va dunyo bo'ylab har yili 13 milliondan ortiq o'lim ekologik sabablar, shu jumladan, havoning ifloslanishi tufayli yuzaga kelmoqda. Ko'zga ko'rinmas zarralar va azot dioksidining zararli darajasi asosan qazib olinadigan yoqilg'ilarning yonishi natijasida yuzaga keladi. 2018-yilda qazib olinadigan yoqilg'idan havoning ifloslanishi sababli sog'liqni saqlash xarajatlariga deyarli 2,9 trillion dollar sarflanganligi aniqlandi, bu kuniga taxminan 8 milliard dollarga teng, deb baholangan.

Shunday qilib, shamol va quyosh kabi toza energiya manbalariga o'tish nafaqat iqlim o'zgarishi muammosini, balki havoning ifloslanishi va aholi salomatligining yomonlashuvi

muammolarini ham hal qilishga yordam beradi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bugungi kunda nafaqat muhim, balki jamiyat va iqtisodiyot uchun dolzarbdir. Ularning istiqboli to'g'risida fikr yuritilganda, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va yangi energiya manbalarini rivojlantirish zarurligi aniq ko'rinadi.

O'zbekiston uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish xavfsiz energiya tizimini barpo etishga yordam beruvchi istiqbolli yo'nalish bo'lib, innovatsion soha uchun ham yangi istiqbollarni ochib beradi. Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda yil davomida quyoshli kunlarning ko'pligi tufayli quyosh energiyasi bo'yicha tabiiy ustunlikka ega. Mamlakat hukumati 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi manbalardan elektr energiyasi ishlab chiqarishning 25 foiziga erishishni[2] maqsad qilib qo'yganligiga qaramasdan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini samarali rivojlantirish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, 2024-yilning 20-noyabr kuni prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan ustuvor vazifalarni e'lon qilgandan so'ng, 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" yili deb nomlashni tavsiya qilishi maqola mavzusining bugungi kunda dolzarbligini namoyon etadi.

Adabiyotlar sharhi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ularning xossalari va tasnifi ko'plab mualliflar va tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan keng mavzu bo'lib, Ehrlich R., Geller H.A., va Cressman J.R. Tolga Taner, Archana Tiwari, Taha Selim Ustun tominidan yozilgan ilmiy ishlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining asosiy turlari, ularning tasnifi va amaliyotda qo'llanilishi keltirilgan[3,4].

Abbasi Tasneem, Joseph S. Franklin ilmiy kitoblarda qayta tiklanuvchi energiya turli manbalari va ularning iqlimga ta'siri yoritilgan[5].

Energetika tuzilmasi iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynashi haqida K.Block va E.Nieuwlaar[6] o'z asarlarida ta'kidlab, jamiyat taraqqiyotini energetika strukturasini o'zgartirish bilan bog'lagan holda, transformatsiyaning yangi yo'nalishi sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rolini ta'kidlab o'tgan.

Shuningdek, J. Twidell va T. Weir[7] ishlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining alohida turlari tizimlariga integratsiyalashuv xususiyatlari yoritilgan. D.Maradin[8] o'zining ilmiy maqolalarida qayta tiklanuvchi texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari va kamchiliklari hamda energiya tizimi uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib o'tgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolaning nazariy va uslubiy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari, xorijlik va mamlakatimiz olimlarining iqtisodiyot nazariyasi, statistika va energetika sohasiga oid konsepsiyalari tashkil etadi.

Ushbu maqola ustida ishlashda mamlakat energetika sohasini o'rganish va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun tizimli yondashuv qo'llanildi. Energiya tuzilishini o'rganishda guruhlariga bo'lish (dekompozitsiya) usuli qo'llanilgan.


Tadqiqot va natijalar. Energetika sohasi haqiqatan ham global iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etishi barchaga ma'lum. Ammo, qazib olinadigan yoqilg'ilar notekis taqsimlanganligi tufayli ba'zi mamlakatlarning bu sohada tabiiy o'z-o'zidan ustunligini, boshqa, energiya import qiluvchi mamlakatlarning esa, xalqaro savdoga (chunki energetika resurslarining narxi shu maydonda belgilanadi) va ta'minot zanjirlariga bog'liqligi sababli ularning zaifligini ko'rish mumkin bo'ladi.

Elektr energiyasi va yoqilg'i har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidir, chunki barcha tarmoqlarning rivojlanishi bevosita elektr energiya ta'minotiga bog'liq: sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, shuningdek, eksportning raqobatbardosh bo'lishi, qolaversa, aholi farovonligining ta'minlanishi elektr energiya manbalariga bog'liqdir.

Bu yerda energiya import qiluvchi va eksport qiluvchi mamlakatlarning maqsadlari farqini ta'kidlash joiz. Yoqilg'i import qiluvchi davlatlar arzon narxlarda yoqilg'ining barqaror ta'minlanishiga umid qiladilar, eksport qiluvchi davlatlar esa, energiya narxi yuqori bo'lishini, lekin shunga yarasha, yoqilg'iga talabning pasayib ketmasligini istaydilar.

Biroq, energiya eksport qiluvchi mamlakatlar sonining cheklanganligi bozor mexanizmlarining erkin ishlashiga to'sqinlik qiladi, bu esa bozor tartibining buzilishiga va energiya resurslarining bahosini unga sarflangan xarajatlar, talab va taklif muvozanatidan kelib chiqqan holda aniqlashning mumkin emasligiga olib keladi[9]. Bu holat mamlakatlarning energiya xavfsizligi borasidagi tashvishlarini kuchaytirib, o'zini-o'zi ta'minlash tushunchasini ommalashtirishga olib keladi. Yoqilg'i-energiyani import qiluvchi mamlakatlar o'zlarining zaxiralari yetarli bo'lmaganda, tashqi bozor holatidagi o'zgarishlarga va jahon bozoridagi energiya narxiga juda bog'liq bo'lib qoladilar, natijada, geosiyosiy va geoiqtisodiy risklarga ta'sirchan va tashqi tahdidlarga juda zaif bo'lishlariga sabab bo'ladi. Shuning uchun import qiluvchi mamlakatlar eksport qiluvchi mamlakatlardagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarga qaramligini kamaytirish, mamlakatda energetika xavfsizligiga erishish va energetik mustaqillikni ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi muammolarni hal qilishga juda katta e'tibor qarata boshladilar.

Energiya import qiluvchi mamlakatdagi ta'minotning tarkibiy tuzilmasiga e'tibor bersak, energiyaga bo'lgan talab ichki ta'minot va energiya sof importi hisobiga qoplanishini ko'rish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Mamlakatlarda energiya ta'minotning tarkibiy tuzilishi [10]


Shuni ta'kidlash kerakki, energiya importi deganda, qazib olinadigan yoqilg'ilarning importi, shu bilan birga, ichki ta'minot deganda, mahalliy yoqilg'i zaxiralaridan foydalanish kiradi. Ushbu turdagi energiya manbaining tarkibiy tuzilishi mamlakatdagi ta'minotning yetarli darajada xavfsiz emasligini bildiradi va bu esa, yoqilg'i-energetika sohasida yuzaga keladigan har qanday inqiroz yoki tahdidlar import qiluvchi mamlakat iqtisodiyoti uchun juda sezilarli bo'lishini anglatadi. Shu sababli, jahon hamjamiyati elektr energiyasini ishlab chiqarishning

xavfsiz shakli sifatida muqobil energiya manbalarini ishlab chiqarishga undamoqda va ularning ortib borayotgan istiqbollarini tobora keng ommaga yetkazmoqda.

Energetika xavfsizligi Ukraina va Rossiya o'rtasidagi harbiy mojaro sabab bo'lgan energetika inqirozi bilan bog'liq holda hozirgi vaqtdagi eng dolzarb va ko'p muhokama qilinadigan mavzulardan biriga aylandi. Geosiyosiy kelishmovchiliklar ta'minot zanjirlarida uzilishlarga olib keldi va Rossiyaning sanksiyalari ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ilgari qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishning asosiy sababi sifatida karbonat angidrid gazlarini kamaytirish va shu asosda atrof-muhit hamda ekologiyani asrash keltirilar edi. Biroq, endilikda energetika tarmog'i bilan bog'liq iqtisodiy masalalar birinchi o'ringa chiqmoqda. Bugungi kunda iqtisodiyot va ekologiya sohalaridagi ustuvor yo'nalishlar bir-biriga yaqinlashib, ular ham iqtisodiyot uchun, ham ekologiya uchun birday afzalliklarga ega bo'lgan muqobil energiyadan foydalanishni taqozo etmoqda. Dunyo hamjamiyati yuzaga kelgan energetik va boshqa inqirozlar sababli iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilish zarurligini hamda yangi energetika iqtisodiyotini shakllantirishdan manfaatdor ekanligini tasdiqladi.

Inqirozning eng sezilarli oqibati energiya manbalari narxining keskin ko'tarilib ketishi bilan bog'liq bo'ldi. 2022-yilda neft narxi allaqachon bir barrel uchun 100 dollardan oshib ketgani holda, gaz narxi misli ko'rilmagan yuqori darajaga ko'tarildi. Shunday qilib, elektr energiyasi ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi yoqilg'i narxining o'sishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan va bunday narxlarning keskin o'sishi ayniqsa, gaz import qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qilgan (2-rasm).




2-rasm. Dunyo bo'yicha elektr energiyasining o'rtacha narxlarining o'zgarishi, AQSH dollari/kVt [11]

2-rasm ma'lumotlariga qo'shimcha qilib, dunyo bo'yicha elektr energiyasining o'rtacha narxi 2024-yilning uchinchi choragiga nisbatan uy xo'jaliklari uchun deyarli o'zgarmagani holda korxonalar uchun taxminan 1 foizga oshganligini qayd etish mumkin. Butun dunyo bo'ylab elektr energiyasining o'rtacha narxi uy xo'jaliklari uchun bir kVt/soat uchun 0,150 AQSh dollarini, korxonalar uchun esa 0,146 AQSh dollarini tashkil etadi. Uy xo'jaliklari uchun elektr energiyasining eng yuqori narxi Yevropada – bir kVt/soat uchun 0,228 AQSh dollari, eng pasti esa Osiyoda – 0,080 AQSh dollari bo'lib, bu maksimum va minimum chegaralar oralig'ida Afrika (0,124), Okeaniya (0,227), Shimoliy Amerika (0,136) va Janubiy Amerika (0,190)dagi narxlarni kuzatish mumkin [11].

2021-yil o'rtalarida pandemiyadan so'ng global iqtisodiyotda barcha energiya manbalari narxlarining sezilarli darajada ko'tarilishi boshlandi. 2022-yilda bu o'sish davom etdi va Ukrainada urush boshlanishi tufayli kuchaydi, bunda "Shimoliy oqim 2" gaz quvurini ishga tushirish bekor qilindi va "Shimoliy oqim 1" orqali gaz ta'minoti dastlab qisqartirildi va kuz boshiga kelib butunlay to'xtatildi. 2023-yilning birinchi choragi yakuniga ko'ra neft narxi o'tgan yil boshiga nisbatan ikki baravar, ko'mir narxi uch baravar, tabiiy gaz narxi esa besh baravardan ortiq oshgan [12].

Yevropa mamlakatlaridagi iste'molchilar uchun energiya xarajatlari (gaz, elektr energiyasi, benzin va boshqalar)ning o'rtacha qiymati 2022-yilda barcha Yevropa mamlakatlarida istisnosiz o'sganligini 3-rasmda ko'rish mumkin.



3-rasm. Yevropa davlatlarida 2022-yilda qayd etilgan o'rtacha energiya xarajatlari va ularning o'sish holati [12]

Shuni qayd etish kerakki, Yevropada gaz narxining bir necha bor oshib ketishi inqirozning mintaqaviy xususiyatini va uning global iqtisodiy vaziyat bilan emas, balki siyosiy vaziyat bilan bog'liqligini statistik ma'lumotlar yaqqol ko'rsatib turibdi. Chunki, AQShda ham energiya narxlari oshgan, ammo bu narxlarning oshishi Rossiya gaz ta'minotiga umuman bog'liq bo'lmaganligi sababli Yevropa fonida deyarli sezilmaganligini kuzatish mumkin.

2022-yildagi yoqilg'i-energiya narxlari bilan bog'liq inqiroz jahon hamjamiyatiga energiya xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikka erishish usullaridan biri sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tishni jadallashtirish va energiya tizimini qayta tashkil etishning maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Qayta tiklanuvchi energiya so'nggi yigirma yil ichida raqobatbardoshlik bo'yicha eng yaxshi natijalardan birini ko'rsatdi. (1-jadval).


1-jadval.

**2010- va 2022-yillardagi qayta tiklanuvchi energiya manbalarining
jahondagi o'rtacha narxlarining o'zgarish tendensiyasi [13]**

Qayta tiklanuvchi energiya turlari	O'rnatish xarajatlarini o'z ichiga olgan o'rtacha narxlari, AQSH dollari/kVt		
	2010-yil	2022-yil	O'zgarishi, foizda
Bioenergiya	2904	2162	-26%
Geotermal energiya	2904	3478	20%
Gidroenergetika	1407	2881	105%
Quyosh fotoelektrik energiyasi	5124	876	-83%
Konsentrlangan (yig'ilgan) quyosh energiyasi	10082	4274	-58%
Quruqlikdagi shamol energiyasi	2179	1274	-42%
Dengizdagi shamol energiyasi	5217	3461	-34%

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, 2000-yilda ishga tushirilgan dunyodagi barcha qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini amalga oshirish orqali 2022-yilga kelib elektr energetika tarmog'ida 521 milliard dollarlik yoqilg'i sarfini tejashga erishilgan (4-rasm).

2022-yilda elektroenergetika tarmog'idagi global yoqilg'i iqtisodi 521 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi



4-rasm. 2022-yilda global qazib olinadigan yoqilg'i xarajatlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobiga tejalishi [13]

Aytish joizki, ayni paytda bu sohaga investitsiyalar yildan-yilga ortib bormoqda va buni Xalqaro energetika agentligi hisobotidagi ma'lumotlar tasdiqlaydi.

Global muammolarning bugungi kundagi dolzarbligini hisobga olgan holda, O'zbekiston ham o'zining energetika tuzilmasiga "yashil" texnologiyalarni faol joriy etib, ushbu sohani jadal rivojlantirish choralari ko'rmoqda. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi, shuningdek, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining takliflarini qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi [14]. Mazkur qarorning maqsadi ijtimoiy va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish orqali respublika hududlarida energiya taqchilligi qoplanishini ta'minlash, bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda investorlar uchun qulay sharoitlar va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilish hisoblanadi.

Prezident Qarori asosan, "umumiy quvvati 4 300 MVt bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini, shu jumladan 2 100 MVt – yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari, 1 200 MVt – ijtimoiy soha obyektlari, xo'jalik subyektlarining bino va inshootlari hamda xonadonlarda o'rnatiladigan quyosh panellari, 550 MVt – tadbirkorlar tomonidan barpo etiladigan kichik fotoelektr stansiyalarini ishga tushirish"ga qaratilgan.

Qarorga muvofiq, "qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish, iste'molchilarni muqobil energiyaga o'tkazish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish orqali 2023-yilda qo'shimcha 5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish va 4,8 milliard metr kub tabiiy gazni iqtisod qilish" nazarda tutilgan.

Ushbu maqsadlarga “jami 15,4 milliard AQSh dollari, shu jumladan 13,4 milliard AQSh dollari – davlat-xususiy sheriklik loyihalari doirasida investorlar mablag‘lari, 1,1 milliard AQSh dollari – tijorat banklari kreditlari, 610 million AQSh dollari – korxonalarning o‘z mablag‘lari, 150 million AQSh dollari – xorijiy moliyaviy tashkilotlar mablag‘lari va 100 million AQSh dollari ekvivalentidagi Davlat budjeti mablag‘lari” yo‘naltirildi.

Vazirliklar, davlat idoralari va tashkilotlarining yetakchi rahbarlari o‘z tuzilmalariga kiruvchi muassasa va tashkilotlar binolariga quyosh panellarini o‘rnatish bo‘yicha mas‘ul etib tayinlandilar. Birgina 2023-yilning o‘zida 11 ming tadbirkorning bino va inshootlariga quyosh panellarini o‘rnatish, kichik fotoelektr stansiyalarini qurish rejalashtirilgan edi.

Bulardan tashqari, bevosita tadbirkorlik subyektlarini iqtisodiy rag‘batlantirish joriy etildi. Xususan, umumiy quvvati 100 kVtgacha bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatgan va ulardan foydalanuvchi shaxslar, ular foydalanishga topshirilgan kundan e‘tiboran uch yil muddatga, quyidagi soliqlarni to‘lashdan ozod etiladi:

ushbu qurilmalar bo‘yicha – yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, alohida turuvchi qurilmalar bilan band bo‘lgan yer uchastkalari bo‘yicha – yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, elektr energiyasini umumiy tarmoqqa sotishdan olingan foyda bo‘yicha – foyda solig‘i to‘lanmaydi;

uy-joy fondining ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi.

Agar qurilmalar o‘rnatilayotgan quyosh panellari quvvatining 25 foizidan kam bo‘lmagan quvvatni tashkil etadigan elektr energiyasini saqlash tizimi bilan o‘rnatilgan bo‘lsa, soliq imtiyozlari ular foydalanishga topshirilgan kundan boshlab o‘n yil muddatga qo‘llaniladi. Soliq imtiyozlari jismoniy shaxslarga ular tomonidan umumiy quvvati 1 kVtdan ortiq bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o‘rnatilganda har bir obyekt bo‘yicha bir marotaba qo‘llaniladi.

Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida 2025-yilni yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilgani [15] Yangi O‘zbekistonda ona tabiatni asrab-avaylab, ekologik barqarorlikni ta‘minlashga qaratilayotgan yuksak e‘tiborning amaldagi yana bir ifodasi bo‘ldi.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish g‘oyasining ilgari surilgani energiya resurslari iste‘molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirishga, iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini yumshatib, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga, tabiiy ekotizimlarni asrashga, iqlim o‘zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta‘minlashga qulay muhit yaratdi.

“Yashil” iqtisodiyot ekologik toza, energiya, suv va boshqa tabiiy resurslarni iqtisod qiladigan texnologiyalarni joriy etib, ekologiya xavfsizligini ta‘minlaydi. Mamlakatimizning 2019-2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini ro‘yobga chiqarish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlarimizni kengaytiradi. Iqlim o‘zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta‘minlaydi.

Xulosa va takliflar. Hozirgi kunda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya tizimini transformatsiya qilish davr talabidir. Jahon energetika bozorida ro‘y berayotgan vaziyatlar va mamlakatlarning energetik mustaqil bo‘lishga intilishi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish uchun yangi turtki bo‘lmoqda.

Biroq, bu sohada bir qator muammolar mavjud bo'lib, ushbu muammolar va ularning yechimini fikrimizcha, quyidagicha izohlash mumkin.

Birinchi muammo iqtisodiy masalalar bilan bog'liq, chunki qayta tiklanuvchi energiya tizimlarini o'rnatish uchun dastlabki sarf-xarajatlar yuqori bo'lishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun hukumatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga iqtisodiy yordamlar olish, mamlakatga soliq imtiyozlari, subsidiyalari va grantlar orqali investorlarni jalb qilish lozim.

Ikkinchi muammo energiya saqlash texnologiyalari bilan bog'liq bo'lib, ushbu masalani hal qilish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini oshirish uchun ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va energiya saqlash texnologiyalarini (masalan, akkumulyatorlarni) rivojlantirishga e'tibor berish lozim.

Uchinchi muammo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samarali ishlashi uchun zarur infratuzilma (masalan, elektr tarmoqlari) yetishmasligi muammosidir. Asosan mazkur masala energiya tarmoqlarini qayta tiklanuvchi manbalar uchun moslashtirish, ularni ko'p manbali tizimlarga aylantirish hamda mahalliy energiya ishlab chiqarishni oshirish uchun yangi infratuzilma loyihalarini amalga oshirish orqali hal etilishi mumkin.

Navbatdagi muammo, bir qator qayta tiklanuvchi energiya loyihalari mahalliy ekotizimlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi bilan izohlanadi. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalarining ekologik ta'sirlarini baholash va zaruriy choralarni ko'rish orqali ushbu muammoning ijobiy yechimiga erishish mumkin bo'ladi.

Muhim muammolardan yana biri, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari mahalliy aholi tomonidan noto'g'ri qabul qilinishi, ijtimoiy noroziliklarga olib kelishi mumkin. Mazkur muammo asosan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining afzalliklari haqida aholini xabardor qilish, ta'lim dasturlari orqali yangi texnologiyalar va energiya samaradorligi bo'yicha bilimlarni oshirish orqali hal qilish mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar/Literatya/References:

1. Возобновляемая энергия – обеспечение более безопасного будущего. <https://www.un.org/ru/climatechange/raising-ambition/renewable-energy>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2-dekabrdagi PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
3. Ehrlich, R., Geller, H.A., & Cressman, J.R. (2022). Renewable Energy: A First Course (3rd ed.). CRC Press. <https://doi.org/10.1201/9781003172673>.
4. Renewable Energy - Technologies and Applications. // Edited by Tolga Taner, Archana Tiwari, & Taha Selim. (2021). <https://doi.org/10.5772/intechopen.84929>. PRINT ISBN: 978-1-83881-000-9
5. Abbasi, Tasneem. (2010) Renewable energy sources their impact on global warming and pollution. PHI Learning, New Delhi. ISBN: 9788120339941
6. K. Block, E. Nieuwlaar – Introduction to Energy Analysis// 2nd Edition, 2016.
7. J.Twidell, T. Weir- Renewable Energy Resources// 2nd Edition, London, 2006.
8. D. Maradin - Advantages and Disadvantages of Renewable Energy Sources Utilization // International Journal of Energy Economics and Policy, №11(3):176-183.
9. X. Лабандейра, Б. Мансано. «Некоторые экономические аспекты энергетической безопасности» - Европейские исследования – 2012.
10. Global Electricity Review 2022 – EMBER. <https://ember-climate.org/app/uploads/2022/03/Report-GER22.pdf>

11. Цены на электроэнергию. https://www.globalpetrolprices.com/electricity_prices/
12. Главное об энергетическом кризисе в Европе – в четырех графиках. <https://meduza.io/feature/2022/09/20/glavnoe-ob-energeticheskom-krizise-v-evrope-v-chetyreh-grafikah>
13. Стоимость производства электроэнергии из возобновляемых источников в 2022 году. https://www.irena.org//media/Files/IRENA/Agency/Publication/2023/Aug/IRENA_Renewable_power_generation_costs_in_2022_Summary_RU.pdf
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
15. 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. <https://kun.uz/news/2024/11/20/2025-yil-atrof-muhitni-asrash-va-yashil-iqtisodiyot-yili-deb-elon-qilindi>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).